

IBN XALDUN FALSAFASI VA UNING IJTIMOY NAZARIYALARNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Nazirov Sherzodbek Rustamsher o'g'li

Andijon Davlat Universiteti Falsafa fakulteti, ijtimoiy falsafa yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi. +998881632666, sherzodbeknazirov90@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14723119>

Annotatsiya: Ushbu tezisda Ibn Xaldun ijtimoiy falsafiy g'oyalari va nazariyalari, falsafasi va uning zamonaviy fanlarga qo'shgan hissasi va o'rni o'rganilgan. Uning hayoti va u qoldirgan meros "Muqaddima" asaridagi falsafiy g'oyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Muqaddima", "asabiyya", sotsiologiya, siyosatshunoslik, geosiyosat, tarixshunoslik, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik, "Kitab ul-ibar", axloq, qon-qarindoshlik, guruh hissi, ijtimoiylik, ibtidoiylik.

Ibn Xaldun (1332-1406) Sharq falsafasi va ijtimoiy fanlar tarixida alohida o'rin egallagan mutaffakirlardan biri hisoblanib, uning falsafasi va nazariyasi zamonaviy ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ibn Xaldunning eng mashxur asari "Muqaddima" bo'lib, unda u tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarining asosiy tamoyillarini o'ziga xos tarzda falsafiy yondashuvda bayon qilib o'tgan.

Ibn Xaldun Abu Zayd ibn Muhammad (1332-yil 27 may, Tunis- 1406-yil 17-mart, Qohira)-arab tarixchisi va faylasufi. Ibn Rushd izdoshi. 1349-1375 yillarda Tunis, Fes, G'arnota, Bujioya(Jazoir) hukmdorlari saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan. 1382-yil Misrga kelib, mudarrislik qilgan umrining oxirida molikiylar mazhabi qozisi bo'lgan.

Asosiy asari: "Kitob ul-ibar" ("Ibratli misollar kitobi", 1370). Asarda Ibn Xaldun jamiyat xususida o'z fikrlarini hamda sharq musulmon xalqlari tarixini bayon qilgan. Ibn Xaldun kishilar hayot tarzidagi tafovutlarni, asosan, geografik va boshqa moddiy omillarga bog'liq hisoblagan. Agarda Ibn Xaldun o'z tarixiy-ijtimoiy nazariyasini bayon qilib, axloq va ijtimoiy muassasalar kishilar turmushi bilan bog'liqligini hamda mexnat va kishilarning o'zaro munosabati jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Ibn Xaldun tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritgan¹.

Ibn Xaldun jamiyatni rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga urinib ko'rgan ilk olimlardan biridir. Ibn Xaldun jamiyatlar rivojlanishi va sivilizatsiyalar rivojlanishini davriy jarayon deb ta'riflagan. U jamiyatning rivojlanishi, gullab-yashnashi va tanazzulga yuz tutishini tahlil qilgan.

Ibn Xaldun inson ibtidosining hayvonot olami ichida bo'lgan vaqtini yovvoyilik (tavaxxush) deb atashgan. Inson tabiati qo'ynida faoliyat yuritar ekan, kichik jamiyatlarga (ijmo) uyushib yashashni boshlashdi. Ijmo bu jamiyat, u o'z taraqqiyoti davrida ikki bosqichni ibtidoiylikni (badaviya) va tamaddun (hadaro) bosqichlarini bosib o'tadi².

Barbarlik bosqichi- qabilalar va xom-ashyo iqtisodga asoslangan jamiyat. Madaniyat bosqichi- iqtisodiy rivojlanish va kuchli ijtimoiy tuzilmalar shakllangan davr. Inqiroz bosqichi- haddan tashqari farovonlik va ma'muriy tizimning zaiflashishi oqibatida tanazzul.

Asabiyya (ijtimoiy birdamlik) nazariyasi. Ibn Xaldun "asabiyya" atamasi bilan jamiyatning birlik va birdamlik ruhini ifoda etadi. Unga ko'ra, asabiyya jamiyatning mustahkamlanishida asosiy omil bo'lib, uning zaiflashishi jamiyatning parchalanishiga olib

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ibn_Xaldun

² Игнатенко А. А. Ибн Халдун о природе государства// Народы Азии и Африки, 1984 г. №1. с. 94

keladi.

Tarjimonlar “al-asabiyya” atamasining turli ta’riflari va tarjimalarini taklif qilganlar masalan, “ijtimoiy birlik”, “birdamlik”, “guruh hissi”, “esprit de”, “ibtidoiy birdamlik hissi” va “irratsional birdamlik hissi”. Ba’zilar al-asabiyyani tajovuzkor qabila kuchi va mantiqsiz birdamlik hissi sifatida belgilagan va hokimiyatga intilish sifatida tushinilgan.

Ibn Xaldun “asabiyya” atamasini quyidagi ma’nolarda qo’llaydi:

1. Qon-qarindoshlik aloqasi.
2. Qon-qarindoshlik munosabatlari orqali bog’liq bo’lgan odamlar guruhi.
3. Qon-qarindoshlik munosabatlari asosida shakllangan birdamlik hissiyoti.

Ibn Xaldun ijtimoiy hayotiy tartibning bo’rtib turuvchi o’zak omili taassub deb biladi. Endi “asabiyya”, ya’ni “taassub” tushinchasining mohiyatini va jamiyat xayotidagi o’rnini o’rganib chiqamiz.

Jamiyat ibtidoiylkdan tamaddunga o’tar ekan, shu bilan bir vaqtda bu jarayon ibtidoiy demokratiya va tengsizlik munosabatlaridan bo’ysunish, boshqarish munosabatlariga o’tishini ham o’zida ifoda etadi. ibtidoiylk bosqichida odamlarni bog’lab turadigan munosabatlarni Ibn Xaldun “asabiyya” deb nomlangan³.

Ibn Xaldun falsafiy qarashlaridan yan bir muhimi bu mexnat va iqtisodiyotning roli. Ibn Xaldun iqtisodiy faoliyatini jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko’rgan. Mehnat va ishlab chiqarishning o’sishi jamiyatning boylik yaratish va madaniy yuksalishi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uning ijtimoiy nazariyalarga ta’siri. Ibn xaldunning ijtimoiy falsafasi hozirgi zamonaviy ijtimoiy fanlarga asos bo’lib xizmat qilgan. Uning asarlari Yevropa va Islom dunyosida tarix, sotsiologiya va iqtisodiyotning rivojiga quyidagicha ta’sir ko’rsatdi:

1. Ibn Xaldun ko’plab mutaxassislar tomonidan “sotsiologiya fanining asoschisi” deb e’tirof etiladi. U jamiyatni o’z-o’zini tashkil qilish tamoyillari, ijtimoiy o’zgarishlarni va guruhlarning o’zaro aloqalarini tizimli o’rgangan.
2. Tsiklik rivojlanish g’oyasi. uning davriy rivojlanish nazariyasi keyinchalik Yevropa tarixshunosligida Osvald Shpengler va Arnold Toynbi kabi tarixchilar tomonidan rivojlantirilgan.
3. Iqtisodiy tamoyillar. Ibn Xaldun iqtisodiyotning jamiyatdai rolini chuqur tahlil qilib, soliqlar, savdo va ishlab chiqarishning iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini o’rganib chiqqan. Uning iqtisodiy tamoyillari zamonaviy iqtisodiy nazariyalar rivojlanishiga turtki bo’lgan.
4. Geosiyosat va ijtimoiy nazariya. Ibn Xaldunning geografik muhit va hokimiyat o’rtasidagi bog’liqlik haqidagi fikrlari bugungi geosiyosat tahlillarida ham ahamiyatli.

Ibn Xaldunning ijtimoiy falsafasi va nazariyalari sotsial fanlarning rivojlanishida inqilobiy qadam bo’lib xizmat qildi. U jamiyatni o’rganishda empirik va tizimli yondashuvni joriy etib, ijtimoiy fanlarning yangi bosqichiga yo’l ochdi. Uning “asabiyya”, tsiklik rivojlanish va iqtisodiy tamoyillari nafaqat Islom dunyosida, balki Yevropa ilm-fanida ham katta ta’sir ko’rsatdi. Ibn Xaldunning eng katta yutug’i – jamiyatni tahlil qilishda nazariy tushunchalarni amaliy tajribaga bog’laganidir. Uning asabiyya (ijtimoiy birdamlik) haqidagi konsepsiyasi shundan dalolat beradiki, jamiyatning barqarorligi va rivoji birdamlik darajasi bilan bevosita

³ Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Interpretation of the Approaches to the Concept of the State in the Ethical Views of Abu Zayd Abdurahman Ibn Khaldun. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 161-164.

bog'liqdir. Bu nafaqat o'tmish jamiyatlariga, balki bugungi zamon davlatlariga ham tegishli bo'lgan universal nazariyadir. Masalan, milliy birlik yoki ijtimoiy kapital kabi tushunchalar Ibn Xaldunning g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Tsikllik rivojlanish nazariyasi esa jamiyat va sivilizatsiyalar tabiatidagi davriylikni oydinlashtiradi. U har bir jamiyatni tabiiy o'sish va tanazzul bosqichlariga ega tizim sifatida ko'rgan. Bu g'oya Arnold Toynbi yoki Osvald Shpengler kabi keyingi g'arb olimlariga kuchli ta'sir o'tkazgan. Ibn Xaldunning fikricha, sivilizatsiya o'zining kuchli asabiyyasi tufayli barpo bo'lib, vaqt o'tishi bilan haddan tashqari farovonlik va ichki zaiflik sabab tanazzulga yuz tutadi. Bu nazariya har qanday davlatning uzoq muddatli barqarorligi uchun doimiy ijtimoiy birdamlik va ichki kuch zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, uning iqtisodiyot haqidagi fikrlari, ayniqsa soliqlar va ishlab chiqarish bo'yicha mulohazalari, bugungi kunda ham dolzarbdir. U jamiyatning iqtisodiy barqarorligini saqlash uchun hukumat faoliyatini muvozanatli tashkil etish zarurligini ta'kidlagan. Soliqlarni haddan tashqari oshirish iqtisodiy faoliyatni susaytirishini, ishlab chiqarishning asosiy manbai esa mehnat ekanini ko'rsatgan. Bu yondashuv bugungi iqtisodiy nazariyalar, jumladan fiskal siyosat va davlat boshqaruvining samaradorligini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Ibn Xaldun ijtimoiy fanlar rivojiga chuqur iz qoldirgan va uning asarlari nafaqat tarix, balki bugungi zamonaviy sotsiologiya, iqtisodiyot va siyosatshunoslikda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. U ilmiy tahlil, tarixiy tajriba va falsafiy mulohazalarni uyg'unlashtirib, jamiyatni tushunish uchun asos yaratdi va bu borada Yevropa hamda Islom olamida ilmiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqdi.

References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ibn_Xaldun
2. Игнатенко А. А. Ибн Халдун о природе государства// Народы Азии и Африки, 1984 г.
3. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Interpretation of the Approaches to the Concept of the State in the Ethical Views of Abu Zayd Abdurahman Ibn Khaldun. Central Asian Journal of Social Sciences and History.